

ISPAN TILIDA ARABCHA O'ZLASHMA SO'ZLARNING SHAKLLANISHI VA QO'LLANILISHI

Islomova Ziyoda Xikmatilla qizi

Talaba, O'zDJTU,

E-pochta: ziyodaislomova56@gmail.com

Anotatsiya: *Tillarni o'rganishga bo'lgan e'tibor va qiziqishlar ortib borayotgan bir davrda ispan tili so'zlashuvchilar soni jihatidan ingliz, xitoy hamda hind tillaridan so'ng 4- o'rinni egallaydi. Shu sababdan nafaqat ispan tilida so'zlashuvchilar balki bu til rasmiy tili hisoblangan mamlakatlar ayniqsa Ispaniya davlatining tarixi, kelib chiqishi va madaniyati o'ziga jalb qilmay qolmaydi. Ispaniya lingvistik tarixining qo'shni mamlakatlardan ajralib turishiga sabab Arab xalifaligining iberia (Peninsula) orollarining katta qismini egallashi, aholisi ustidan uzoq vaqt qilgan hukmronligi va bu tilga o'tkazgan katta ta'siridir.*

Kalit so'z: *Vulgar lotin, vulgaris, Klassik lotin, vernaculars, Iberiya Peninsula, Galaico-Portugues, Asturian-Leonese, Kastiliya, Aragones Katalan.*

ФОРМИРОВАНИЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АРАБСКИХ ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ В ИСПАНСКОМ ЯЗЫКЕ

Islomova Ziyoda Xikmatilla qizi

Студентка, УзГУМЯ

Электронная почта: ziyodaislomova56@gmail.com

Аннотация: *В эпоху растущего интереса к изучению иностранных языков испанский язык занимает 4-е место в мире по числу носителей - после английского, китайского и хинди. По этой причине интерес вызывает не только сам испанский язык и его носители, но и история, происхождение и культура стран, где он является официальным, - в особенности Испании. Особое место лингвистической истории Испании среди соседних государств объясняется тем, что Арабский халифат захватил значительную часть Иберийского полуострова, долгое время господствовал над его населением и оказал огромное влияние на формирование испанского языка.*

Ключевые слова: *вульгарная латынь, vulgaris, классическая латынь, vernaculars (народные языки), Иберийский полуостров, галисийско-португальский, астурийско-леонский, кастильский, арагонский, каталанский.*

FORMATION AND USAGE OF ARABIC LOANWORDS IN THE SPANISH LANGUAGE

Islomova Ziyoda Xikmatilla qizi

Student, UzSWLU,

E-mail: ziyodaislomova56@gmail.com

Abstract: *In an era of growing interest in language learning, Spanish ranks 4th in the world by number of speakers - after English, Chinese, and Hindi. For this reason, not only Spanish speakers themselves but also those interested in the history, origins, and culture of Spanish-speaking countries - particularly Spain - find this subject compelling. What distinguishes Spain's linguistic history from that of its neighboring countries is the Arab Caliphate's conquest of a large portion of the Iberian Peninsula, its prolonged dominion over the local population, and the profound influence it exerted on the development of the Spanish language.*

Keywords: *Vulgar Latin, vulgaris, Classical Latin, vernaculars, Iberian Peninsula, Galician-Portuguese, Asturian-Leonese, Castilian, Aragonese, Catalan.*

Bugungi kunda ispan tili umumiy hisobda 460 milliondan yuqori bo'lgan aholining ona tilisi hisoblansa, 75 milliondan ortiq so'zlashuvchilarning ikkinchi tilidir. Lotin Amerikasi, Ispaniya va Ekvatorial Gvineya kabi yigirmadan ortiq davlatlarda rasmiy tili deb tan olinganligi shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlari, Andorra, Gibraltar va Belize shaharlarida keng tarqalgan ikkinchi muloqot vositasi bo'lib xizmat qilishi diqqatga sazovordir. Uning boy tarixi, madaniyati, tili va albatta noyob urf-odatlar asrlar davomida turli Imperiya va hukmronliklar shuningdek, arab xalifaligi tuzumi davrida shakllanganligi bilan ajralib turadi. Bu til Hind-yevropa tillari Roman-German oilasiga mansub hisoblanib, kelib chiqishi lotin tiliga borib taqaladi. Ko'plab ispancha so'zlarning ildizi lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, ular: "padre" (father) dan "pater", "agua" (water) dan "aqua" va "estrella" (star) dan "stella" kabilardir.

Rim imperiyasi davrida madaniy yozuvning hamda siyosiy kuchlarning asosini "Kassik lotin" tili tashkil qilishiga qaramay, so'zlashuv tili undan farqli bo'lib "Vulgar lotin" tilisi deb nomlangan. Lotin tilida "vulgaris" - "oddiy xalqqa tegishli" degan ma'noni bildirgan. Aynan shu "Vulgar Latin" dan keyinchalik ispan, italyan, fransuz, portugal tillari kelib chiqqan. So'zlashuv jarayoni yillar davomida turli-tuman mahalliy aholilarning farqli geografik joylashuvlari, atrof-muhitlaridagi tafovutlar sabab "vernaculars" ya'ni shevalarni paydo qilgan. VIII asrga kelib Peninsuala yarim orolida beshta alohida til guruhi vujudga keldi barchasi Latindan kelib chiqib: Galaico-Portugues, Asturian-Leonese, Kastiliya, Aragones va Catalan deb ataldi. Shulardan Kastiliya tili so'zlashuv Latindan farqlarni saqlab qolgan edi.

VIII asrga kelib Ispaniya mustaqil qirolliklarga bo'linib ketgan guruhlardan tashkil topgan edi. 711-yilda arab xalifaligi ilk bor Iberiya Peninsulaning shimoliy va sharqiy qismlarini juda qisqa vaqt davomida egallab turishga muvaffaq bo'ladilar. Faqatgina, 7 asrdan so'ng to'liq hukmronlik o'rnatishga erishadi. Arablar Ispaniyaga Gibraltar bo'g'ozi orqali o'tib keladilar va

Puatye (hozirgi Fransiyaning g'arbiy- markaziy qismida joylashgan shahar) shahrida to'xtaydilar. Musulmonlar hukmronligi o'rnatilgandan so'ng xristian hisoblangan aholi o'zining Xristianlikka qurilgan Imperiyasini qayta tiklash uchun uzoq vaqt urush olib boradilar va bu tarix zarvaraqlariga "Rekonkista" nomi bilan kiradi. Bu davrda Kastiliya shahri Arab bosqinchilariga qarshi ko'zga koringan raqiblardan sanalar edi. Bu esa Rekonkista harakati davrida Kastiliya tilining oz pozitsiyasini saqlab qolishiga zamin yaratgan. Bundan tashqari Peninsuala va Kastiliya shaharlari ittifoq tuzib, uni Katolik Monarhlari nomi bilan tanilgan Aragonlik Ferdinand va Kastiliyalik Isabellaning 1469-yilda bo'lib o'tgan nikohlari bilan mustahkamlaydilar. Bu o'z o'rnida Kastiliya tilining mavqeyi ortishiga va kastiliyalik bo'lmagan balki unga yaqin chegarada joylashgan aholining ham bu tilda sozlashishiga sabab bo'ladi. Bu voqea Ispaniya tarixida muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki u zamonaviy Ispaniya davlatining birlashishiga shuningdek hozirgo zamonaviy ispan tilining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Ushbu voqeadan so'ng 1492-yil Arab amirligi o'zning so'nggi hukronlik shaharlarining poytaxti hisoblangan Granada shahridan ham mahrum bo'ladilar.

Arab hukmronligi Iberiya Peninsuala shahrida deyarli 800 yil davomida, o'z kuchini namayon etib, ayniqsa, Granada shahrida nafaqat tili balki madaniyati va urf-odatlarida ham katta iz qoldirgan. Chunki bu shahar arab xalifaligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihatlarida muhim o'rin tutgan. Bu vaqt oraligi ishonilmas darajada Arab hamda Roman tillarining uyg'unlashuviga, ispan tilining noyob, o'ziga xos madaniyati shakllanishiga olib kelgan. Arab tilining bir necha asrlar davomida Granada hududida rasmiy til deb tan olinishi ispan tili rivojlanishida o'zining keng ta'sirini korsatgan. Bu esa Andalusiya dialektini vujudga keltirgan. Bunga qo'shimcha tarzda aynan shu hududda musulmonlarning maftunkor, barchani birdek jalb qiluvchi arxitekturasini rivoji ham taqsiinga sazovordir. Shuningdek, Granada mashhur "Alhambra" saroyi joylashgan shahar sifatida ham arab-islom madaniyatining ushbu hududdagi eng muhim poytaxtlardan biri bo'lgan deyish mumkindir.

Arablarning VIII asrdan to XV asrga qadar hukmronliklari ispan tili tarixida lotin tilidan keyingi o'rinda muhim ahamiyat kasb etishiga olib kelgan. Hozirgi kunda ispan tili lug'atining deyarli 8% i ning ildizi arab so'zlariga borib taqaladi. So'zlashuvda ishlatiluvchi mingdan ortiq so'zlar arab tilidan o'zlashgandir. Albatta bu turli sohalar bilan chambarchas bog'langan holda yuzaga keladi ya'ni, qishloq xo'jaligi, taomlar, ilm-fan va ma'muriy so'zlarga aloqadordir ("arroz" (guruch) arabcha ar-ruzz dan, "algebra" (agebra) al-jabr dan, "alfombra" (gilam) hanbal dan, "barrio" (mahalla) barri dan, "guitarra" (gitara) gitara dan kelib chiqqani kabi). Eng muhim qismi esa arab tili grammatikasidagi AL aniq artiklining ba'zi ispancha so'zlarda qo'shilib ketishi va saqlanib qolishidir. Bularga misol "Algodon"(paxta) "al-qutn" dan, "Almohada" (yostiq) "al-mukhadda" dan, Alcazar (qasr, qal'a) "al-qasr", "Aceite" (yog') "az-zayt dan kelib chiqadi.

Izlanishlar natijasiga ko'ra shu aytishimiz mumkinki, ispan tili nutqida a, z ba'zan h harflari ishlatilishi aynan bu so'zlarning ildizi arabchadan o'rnashib qolganini anglatadi. Bundan tashqari, yangi asrimizda ham ko'plab Ispaniya hududidagi shahar nomlarining hamda madaniy merosiga oid joy nomlarining arabcha nomlari saqlanib qolganligi kishini jalb qilmay

qolmaydi. Bularga misol tarzda “Toledo” arabcha Tulaytula dan, “Madrid” Majrit dan, Cadiz Qadis dan, “Zaragoza” Saraqusta dan tasirlashuvi natijasida paydo bo’lsada uning tag ildizi lotin tiliga borib taqalishi ham sir emas. Xalifalik davrida eng ko’p ta’siri ostida qolgan yana bir shahar lardan Andalusiya shahri va uning poytaxti sanalgan Kordoba hududlari arablar arxitekturasida rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Bularga misol tarzda, “Cordoba ning mashhur masjidi” (Mazquita Catedral) aytishimiz maqsadga muvofiqdir. Bu joy minglab tashrif buyuruvchi sayyolar bilan doim to’la bo’ladi. shuningdek, “El-Banuelo va Zafra uyi”, Granada shahrining maftunkor “Alhambra”si, “Alcazaba” qal’asi, “Zahara de la Sierra” (oq qishloqlar) nomlari ostidagi binokorlik ishlari o’zida islom va arab madaniyatini chambarchas holda aks ettirgan.

Ispan tili grammatikasida faol rol o’ynovchi, muloqotda muhim ahamiyat kasb etuvchi “O’jala” sozi ham o’z o’rnida arab lug’atidan kelib chiqqan va turli xil ma’nolarni mujassamlashtiradi. Ya’ni grammatik qismda “istak mayli” (subjuntivo) shaklini tuzilishida bosh asos bo’lib xizmat qiladi. U “umid qilamanki”, “Xohlardimki”, “istagan bo’lar edimki” yoxud “hayriyatki” “Hudo xohlasa” kabi xilma xil bo’lgan ma’nolarni gap kontekstiga qarab o’zida aks ettiradi.

Shunday qilib, bu davlatning madaniyati, urf-odatlar, tili, arxitekturasida o’zining bir-biridan tubdan farqlanuvchi dinlar (xristian, islom hamda katolik), imperiya hamda xalifaliklar ostida shakllangani bilan ham o’ziga xos sanaladi. U har yili minglab turistlarni bu xilma xillikni ko’rish uchun majbur qiladi. Ispan tili faqatgina boy tarixi bilan emas balki go’zal talaffuzi, o’qilishda osonligi bilan ham bu tilda so’zlashuvchilar sonining keskin ortib borishiga sabab bo’lmoqda. U haqida qancha ilmiy ishlar, izlanishlar olib borilmasin har safar turli yangiliklar chiqaveradi va uningzamiri poyonsizdek tuyuladi. Hozirgi davrda bu hududning 70% dan ortiq aholisi katolik diniga e’tiqod qilsada, o’zaro insonlarda bir-birining diniga, marosim va bayramlariga nisbatan hurmat shakllangan. Shuningdek, odamlari ochiq ko’ngil va mehmondo’sht sanaladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Casares, J. Introducción a la lexicografía moderna. Madrid: CSIC, 1950. 354 p.
2. Prieto, M., Prieto J.M. Asi Habla El Mexicano: Diccionario Basico de Mexicanismos. México, PanoramaEditorial, 1984. 142 p.
3. АНОРБОВЕВА, С. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕРЕВОДЧИКА (НА ПРИМЕРЕ: БАКАЛАВРИАТ И МАГИСТРАТУРА). Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 120–127. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/524>
4. Solikha, A. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 2(3), 9–12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11178339>

5. Анорбоева С. (2024). ПОДГОТОВКА ПЕРЕВОДЧИКОВ С ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 176-180. <https://doi.org/10.2024/5mckbz69>

6. Анорбоева С. А. СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ ПЕРЕВОДЧИКОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 11-22.